

PARONIMLARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI
(AMIR XUDOYBERDI SHE'RIYATI MISOLIDA)

Tillayeva Malohat Normurot qizi

QarDU. Lingvistika (o'zbek tili) yo'nalishi magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15511288>

Annotatsiya. Maqolada Qashqadaryolik shoir Amir Xudoyberdi she'rlarida qo'llanilgan paronimlar tahlil qilingan. Paronimlarning lisoniy tabiati va paronomaziya hodisasi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: she'riyat, so'zlashuv nutqi, badiiy adabiyot, paronim, paronomaziya, qofiya.

Аннотация. В статье анализируются паронимы, используемые в поэзии Кашкадарьинского поэта Амира Худойберди. Обсуждается языковая природа паронимов и паронимии.

Ключевые слова: поэзия, разговорная речь, художественная литература, пароним, паронимия, рифма.

Abstract. The article analyzes the paronyms used in the poetry of the Kashkadarya poet Amir Khudoyberdi. The linguistic nature of paronyms and paronomasia is discussed.

Key words: poetry, colloquial speech, fiction, patronym, paronomasia, rhyme.

O'zbek tilida so'zlashuv nutqi va badiiy adabiyotda ko'p qo'llaniladigan hodisalardan biri – paronimlardir. Paronim termini birinchi bor Aristotel tomonidan qo'llanilgan: para – yonida, yonidagi, onoma – nom, ism. Paronimlarning lingvistik tabiatini monografik tarzda o'rgangan V.Nafasova paronim termini o'tmishda bir xil asosli yasama so'zlarga nisbatan qo'llanganligini ta'kidlaydi¹. Tilshunos olim H.Jamolxonov paronimiya ikki yoki undan ortiq leksemalarning talaffuzda o'zaro o'xshash bo'lishi. Bunday o'xshashlik, odatda har ikki (yoki uch) leksema tarkibidagi tovushlarning fizik-akustik yaqinligidan kelib chiqishini ta'kidlaydi hamda *arqon* – *arkon* leksemalarini misol sifatida keltirib o'tadi².

“Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati”da paronimlar fonetik tarkibi boshqa-boshqa, talaffuzdagina o'xshash, yaqin bo'lib qoladigan so'zlar; paronimiya esa fonetik tuzilishi boshqa-boshqa so'zlarning talaffuzi o'xshash, yaqin bo'lib qolish hodisasi deb izohlangan³.

¹ V.Nafasova. O'zbek tili paronimlarining lisoniy tahlili. Monografiya. – Qarshi, 2024. – B.14.

² Jamolxonov. H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin. – B.181.

³ Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2002. – Б. 80.

Tilshunos olim prof. Nizomiddin Mahmudov paronimlar o'zbek tilida talaffuzi jihatidan o'xshash (bir xil emas), ammo boshqa-boshqa ma'noga ega bo'lgan so'zlar ekanligini, ular fonetik jihatdan bir-ikki tovush bilan farqlanishini ta'kidlaydi⁴. Aytish mumkinki, paronimlar talaffuzi jihatidan bir-biriga yaqin, ma'no jihatidan farqli ikki, ba'zan uchta leksemadan iborat so'zlardir. Hassos shoir Amir Xudoyberdi o'z she'rlarida paronim so'zlardan unumli foydalanganligini misollar orqali ko'rish mumkin.

Bola – balo.

Qizginang ko'zidan oqdi laxta xun

Bolasin dog'ida, o'lim dog'ida. (Ayol)

G'o'laday oyoqlari bir qop go'shtni sudraydi.

Suyaksiz til jur'ati boshga *balodir*, axir. (Evrilish)

Yod – yot

Bilsangiz, oy ezgu *yod* bilan

Qiyomatga otlangan ayol. (Oy titraydi ...)

Cho'chqada rashk yo'q emishkim, barcha jonzotlar aro,

Juftini qizg'onmas ermish, voajab, *yotlar* aro. (Evrilish)

Asir – asr

Ruhim xayol yetmas manzilga *asir*,

Tunlar qarog'imni yulduzlar yoqdi. (Tabiat)

Asrlarkim kelur Furqat fig'oni,

Hinddan shoh Boburning sog'inch, armoni. (Ey, Vatan)

Borlik – borliq.

Nohaqlikning qo'li baland chog'ida

Haqning *borligidan* uzgandim umid. (Qaytish)

Hayqiraman, foydasiz, ammo,

Bo'yaladi *borliq* xunimga, manim og'riq to'la unimga

Dunyo sira qilmaydi parvo. (U tug'ilgan ...)

Tana – ta'na.

Oppoq ko'ylak kiygan bahodir,

Ko'zlarida chuqur bir ta'na. (Tushlarimda)

Shirmoyday yuzida kulgichi halim,

⁴ Маҳмудов Н. Ўқитувчи нутқи маданияти. Бакалавриятнинг “Ўқитувчилар тайёрлаш ва педагогика фани” билим соҳаси талабалари учун дарслик. – Тошкент, 2007. – Б. 102.

Nozu ishvasidan kuyadi tanam. (Oh, biram nozanin!)

Shox – shoh.

Necha bog‘ni kezib, axtarib

Qo‘l yetmas bir shoxda topganim. (Evrilish)

Sen *shoh*dirsan, men bir fuqaro

Holim ko‘rib dema “fu qaro”. (Nigohlaring)

Kuy – ko‘y.

Sokinlikka hamma yoq

Ko‘miladi bir pasda

Kuy bo‘lib botgan pichoq

Dastalari sinadi. (Sog‘inch afsuni)

Necha-necha oshiqqlar bo‘zlab o‘tdi *ko‘yingda*,

Umidu armonlarin so‘zlab o‘tdi *ko‘yingda*. (Tavallo)

Paronimlar talaffuzi yaqin, o‘xshashligi sababli she‘riy matnlarda qofiya vazifasini bajarishi ham mumkin. Amir Xudoyberdi “Ayol” she‘rida *shahid* va *shohid* paronimlarini qofiya vazifasida ustalik bilan qo‘llaydi.

Afg‘onda bir o‘g‘ling bo‘lgandi *shahid*,

Biri Farg‘onada botdi qoniga.

Ne ofat, bariga Ollohdir *shohid*,

Pichoq yetdi elning ustaxoniga. (Ayol)

Begoyim, siz chindan-da suluvlardan suluvsiz,

Baland shoxda *olusiz*, hali hech kim *oluv*siz. (Begoyim)

Amir Xudoyberdi bu misralarda paronimlarni yonma-yon qo‘llagan. *Olu* (meva) va *oluv* (xapakat) so‘zlaridan paronim sifatida foydalanib paronomaziya yuzaga keltirgan.

Paronomaziya – paronimlarni nutqda, ma‘lum matnda qo‘llash bilan bog‘liq uslubiy amallardan biri sanaladi. Paronomaziya she‘riyat uchun eng zarur va muhim uslubiy vosita ekanligini o‘zbek shoirlari ijodida kuzatish mumkin. Paronomaziya, asosan, misralar oxirida uchraydi hamda qofiya vazifasini bajaradi. Qofiya misralarning tayanch nuqtasi, u misralar tarkibidagi so‘zlarni birlashtirish, zanjirsimon halqa yaratish vazifasini bajaradi. Qofiyadagi paronomaziya – yuksak badiiy san‘at namunasidir.

Og‘zaki va yozma nutqda paronimlarni qo‘llash bilan bog‘liq xatoliklar, ya‘ni bir so‘z o‘rnida unga o‘xshash bo‘lgan ikkinchi bir so‘zni qo‘llash holatlari ham uchraydi.

Bu – paronimlarning lisoniy tabiatiga xos xususiyatdir. Adib she’rlarida ham shu holatni kuzatish mumkin.

Ular shul *alfozda* ko‘zin yumsalar

Biz esa yashnaymiz so‘lim bahorday!

Qo‘l silta bariga, yur endi ketdik ... (Qo‘l silta bariga ...)

Adib bu misrada *alfozda* leksemasi o‘rnida *alpozda* leksemasini qo‘llashi kerak edi.

Alpozda so‘zi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da quyidagicha izohlangan.

ALPOZDA s.t. (ma‘lum so‘zlar bilan) Ahvolda, tarzda. *Kecha kechqurun binoyidek yurgan Muazzam opa, tun yarmidan og‘ganda, oyoqlari zirqirab og‘rib, uyg‘onib ketdi. Shu alpozda anchagacha uxlo olmay yotdi.* R.Fayziy, Balli, ona qizim. (O‘TIL, 1. – B.95)

Alfozda q. **alpozda**. *Muftiy esa shu alfozda toki peshingacha Qur‘on oyatlaridan tilovat qilishda davom etdi. Gazetadan. [Sulton] Hushiga kelganida esa qirg‘oqdagi tol ostida oyoq-qo‘llaridan jon chiqib ketgandek bir alfozda shalpayib yotganini, tepasiga yig‘ilgan tumonat biri olib-biri qo‘yib g‘o‘ng‘irlashayotganini, (keyinchalik) ... har safar kun-uzzukun suvdan chiqmay shodon qiqirlashayotgan bola-baqrani ko‘rganda yuragi orqaga tortib ketishlarini – hamma-hammasini unutdi.* X.Do‘stmuhammad, Qichqiriq. (O‘TIL, 1, 86.)

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *alpozda* so‘zi izohlanib, *alfozda* so‘zi esa *alpozda* so‘ziga qarash kerakligi ta’kidlangan. Ya’ni *alpozda* va *alfozda* so‘zlari ma’no jihatidan bir xil ekanligi uqtirilgan.

Alpozda va *alfoz(da)* so‘zlari butunlay boshqa-boshqa leksemalardir. Ular o‘rtasidagi o‘xshashlik ularning talaffuzi bilan bog‘liq. O‘zbek tilining og‘zaki nutqida *f* undoshinining *p* undoshi bilan aytilishi me’yor hisoblanadi. Arabcha *alfoz* so‘z, ibora ma’nolarini anglatadi.

Lafz so‘zining ko‘pligi *alfoz*dir. Ko‘rish mumkinki, adib *alpozda* so‘zi o‘rnida *alfozda* so‘zini yanglish qo‘llagan.

Boshimga qor yog‘sa-da, qirchillama ayozda,

Qulf urgaydir, ko‘nglimni bahor qilib yaratdi. (Ulkim meni o‘ziga ...)

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *qulf* so‘zi

1 Eshik, sandiq, javon va sh.k. kalit bilan berkitish va ochish uchun ishlangan maxsus buyum yoki moslama. *Naycha qulf. Osmo qulf. Ich qulf. Darvoza qulf. Eshikka qulf solmoq.*

Kutubxona eshigidagi qulfni ko‘rib, hayron bo‘ldi. “Yoshlik”.

2 Turli narsalarning, buyumlarning berkitiladigan qismi. *Soat zanjirining qulfi.*

Hammaga ma‘lum ikki qulf, ikki belbog‘li sariq portfelini ko‘tarib, maktabga jo‘nadi.

Mirmuhsin, Umid.

3 kesim vzf. *Qulflab qo'yilgan, berk. Darvoza qulfl. Magazin qulfl. Bordik – eshik qulfl edi. Ishxonangga bordim, allaqayoqqa ketgan, deyishdi. Uylaringda hech kim yo'q, qulfl.*

S.Zunnunova, Olov. (O'TIL, 4, 265)

Izohdan ko'rinib turibdiki, *qulfl* so'zi berkitish, ochish uchun qilingan metall moslama ma'nosini anglatadi.

Izohli lug'atda *qulfl urmoq* leksemasi quyidagicha izohlangan:

QULP: *qulfl urmoq* 1) gurkirab, avj olib ko'karmoq; yashnamoq, gullamoq. *Erta ko'klam qulfl uradi tog' lolasi. "Qo'shiqlar". Mening nazarimda, hozir ko'klam qulfl urib turganga o'xshaydi.* P.Qodirov, Uch ildiz; 2) *ko'chma* barq urib rivojlanmoq, taraqqiy etmoq, gullab-yashnamoq. *Qulfl urasan savlat to'kib keng Osiyoga, Mash'al bo'lib nur sohasan sharqiy samoga.* T.To'la. (O'TIL, 4, 275)

Ushbu misrani *qirchillama ayozda boshimga qor yog'sa-da, qulfl urib, ya'ni yashnab, gurkirab ko'nglimni bahor qilib yaratdi* ma'nosida izohlash to'g'riroq. Demak, bu matnda *qulfl urmoq* so'zi o'rnida *qulfl urmoq* qo'llanilishi lozim edi.

ADABIYOTLAR

1. Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2002. – Б. 80.
2. Jamolxonov. H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin. – B.181.
3. Маҳмудов Н. Ўқитувчи нутқи маданияти. Бакалавриятнинг “Ўқитувчилар тайёрлаш ва педагогика фани” билим соҳаси талабалари учун дарслик. – Тошкент, 2007. – Б. 102.
4. Nafasova V. O'zbek tili paronimlarining lisoniy tahlili. Monografiya. – Qarshi, 2024. – 133 b.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildli. To'rtinchi jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 824 b.